

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.08.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

JIYANOV LAZIZ NAJIMOVICH

IQTISODIY HUDUDLARNING INVESTITSION JARAYONLARINI
TAHLIL QILISH VA BAHOLASH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UDK: 332.1:330.322:330.4 (575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic
sciences**

Jiyanov Laziz Najimovich

Iqtisodiy hududlarning investitsion jarayonlarini tahlil qilish va baholash
metodikasini takomillashtirish3

Жиянов Лазиз Нажимович

Совершенствование методики анализа и оценки инвестиционных процессов в
экономических регионах29

Jiyanov Laziz Najimovich

Improvement of the methodology for analyzing and assessing investment processes
in economic regions57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works62

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.08.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

JIYANOV LAZIZ NAJIMOVICH

IQTISODIY HUDUDLARNING INVESTITSION
JARAYONLARINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.I.PhD/Iqt3871 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Isomov Bekmurod Sayfiddinovich
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, PhD, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Nizomov Asliddin Badriddinovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.1.08.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil " " soat " " dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel: (998 65) 221-26-92, (998 65) 221-27-07, e-mail: ilmiy_innovatsiya@buxdu.uz

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (" " raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel: (998 65) 221-25-87, e-mail: buxdu_arm@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026- yil " " kuni tarqatildi

(2026-yil " " dagi " " raqamli reestr bayonnomasi)



O.X. Xamidov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

D.Sh. Yavmutov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kengashi raisi, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc),
professor

B.N. Navruz-Zoda
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda mintaqalarning barqaror iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishishda investitsiya jarayonini optimallashtirish orqali global nomutanosiblikni kamaytirish va shu asosda xalqaro bozorlarda yuqori raqobatbardoshlikka ega tovarlar ishlab chiqarish hamda xizmatlarni ko'rsatishni tashkil qilish asosiy omil bo'lib qolmoqda. Hududlarning investitsion jarayonlarini rag'batlantirish va takomillashtirish mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlash imkonini beradi. Tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, "2024-yilda jahonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 1,3 trillion AQSh dollarini tashkil etib, rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma loyihalarini o'zlashtirish darajasi hamda iqtisodiy hududlarni rivojlanish bilan bog'liq tarmoqlarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 10 foizga kamaydi"¹. Ushbu jihatdan hududlarni iqtisodiy rivojlantirishda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish shartlarining optimallashtirish orqali to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahonning iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarida iqtisodiy hududlarni rivojlantirishda investitsiyalarni keng jalb etish va yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilmoqda. Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiya muhitini yaxshilash, tarkibiy hududlarning investitsiya salohiyatini rivojlantirish, hududning iqtisodiyot tarmoq va sohalariga investitsiyalarni yo'naltrish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishni jadallashtirish, investitsiya loyihalarining samaradorligini ta'minlash, mahalliy va xorijiy investirlarni qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb etishning boshqarish mexanizmini takomillashtirish bu boradagi muhim tadqiqot yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida mintaqalarda faol investitsiya siyosatini olib borish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda muhim o'rin tutuvchi chet el investitsiyalarini jalb qilish va ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jarayonlarini takomillashtirish kabi yo'nalishlarda islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirish maqsadida "Asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o'rtacha 7 foiz atrofida o'sishini ta'minlash"² kabi vazifalar belgilangan. Ushbu ustivor vazifalarni hal etishda mintaqada investitsiya jarayoni milliy iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida tahlil qilish va baholash metodikasini takomillashtirish, qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini ta'minlash, hududiy investitsiya loyihalarini tanlash va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash, mintaqada investitsiya jarayonini rivojlantirish istiqboldagi prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish borasidagi ilmiy-tadqiqotlarni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvar PF-5621-son "Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish

¹ UN Trade and Development (UNCTAD), World Investment Report 2024. Geneva – September 2024

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi "«O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "«Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 26-iyuldagi PF-111-son "Ma'muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son "«O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-dekabrda PQ-3439-son "Xalqaro va xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlikning samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 8-yanvardagi PQ-4102-son "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022-yil 28-dekabr PQ-459-son "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 5- apreldagi PQ-113-son "2023-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-oktabrdagi 606-son "Respublika hududlarida innovatsiya va investitsiya faoliyatini jadallashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 14-yanvardagi 16-son "O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur sohalarga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur ilmiy-tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiy hududlarni har tomonlama rivojlantirish hamda moliyalashtirish, ayniqsa investitsiyalar bilan ta'minlashning iqtisodiy ahamiyati borasida xorijiy davlatlarda bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, xorijiy olimlardan J.M.Keynes, P.Masse, E.Reed, P.Kottler, Z.Gial, R.Smith, F.William, J.Gordon, A.Effe, K.Ekludd, K.McConnell, S.Bruce, A. Richard, R.Franck, R.Pike, B.Neale, F.William, A.Samuelson, D.Nordhaus, E.Joseph, La.Stiglitz, R.Gibson, K.Marx, Z.Bode, A. Kane, M.Alan, B.Tomov, R.Alvarado, M.Iniguez, N.Ronald, T.Nikiforoslarning ilmiy ishlarida atroflicha yoritilgan³. Ushbu olimlarning tadqiqot ishlarida sohaga investitsiyalarni

³ Keynes J.M. Théorie générale de l'emploi, de l'intérêt et de la monnaie. Payot, 1936. p. 38.; Massé P. Criteria and methods for the optimal determination of capital investment / Translated from French by Okuneva F.R. and Gladyshevsky A.I. - M.: Statistics. 1971. - 503 p.; Reed E., Kottler P., Gial Z, Smith R. Commercial banks. (translated from English). - M.: Progress, 1983. - 493 p.; William F. Sharpe, Gordon J. A. Effe. Investments. Infra. 1999. 1004 page. Ben Branch. Investments: Principles and Practices. Tv'rdi. "Longman Financial Services". 1989. 850 page.; Ekludd Klas. Efficient economy: the Swedish model,- M.: Economy, 1991.- 99 p.; McConnell K.R., Bruce S.L. Economy: principles, problems and policy (translated from the English edition).- T.I.- M.: Republic, 1992.- 399 p;

jalb etish, ularni tahlil etish va metodikasini takomillashtirish bo'yicha u yoki bu darajada nazariy va uslubiy jihatdan o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) davlatlarida hududlarda investitsiyalarni jalb etish va unga ta'sir etuvchi omillarning nazariy jihatlari T.S.Khachaturov, E.D.Cherevik, K.V.Baldin, A.V.Rukosuev, I.I.Perederiaev, R.S.Golov, D.V.Bochkov, V.M. Askinadzi, V.F.Maksimova, L.I.Yuzvovich, M.S.Maramygin, E.G.Knyazeva, M.I.Lvova, Yu.V.Kuvaeva, M.V.Chudinovskikh, S.A.Degtyarev kabi olimlar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan⁴. Ushbu tadqiqotlarda MDH olimlari mintaqaviy investitsiyalarning iqtisodiyotidagi ahamiyati, uni tashkil etish nazariy asoslari, moliyalashtirish manbalari va usullari, investitsiyalarni olib kirish yo'nalishlari, sohadagi mavjud muammolarni baholashga e'tibor qaratgan.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning transformatsiyalashishi sharoitida iqtisodiy hududlarning investitsion jarayonlarini tahlil etish masalalari D.G'.G'ozibekov, T.M.Qoraliev, S.R.Umarov, A.V.Vaxobov, Sh.X.Xajibakiev, N.G.Muminov, A.Sh.Bekmurodov, Ya.K.Karrieva, I.U.Ne'matov, D.H.Nabiev, N.T.Kattaev, N.N.Imomov, Sh.Sh.Shoxa'zamiy, B.S.Mamatov, D.Yu Xo'jamqulov, O.X.Xamidov, O.Sh.Nurbekov, B.N.Navro'z-zoda, X.S.Asatullaev, B.O.Tursunov, B.S.Isomov, D.Sh.Yavmutov kabi olimlarining ilmiy asarlarida o'z aksini topgan⁵.

Mazkur olimlar investitsiyalarni mintaqalar kesimida yo'naltirish va

Richard A., Franck Richard. Les choix d'investissement: méthodes traditionnelles, flexibilité et analyse stratégique. Economica. Paris. 1995.p.140.; Richard Pike, Bill Neale. Corporate Finance and Investment. Decisions and Strategies. London. Prentice Hall. 1996. 706 page.; William F. Share, Gordon J. Alexander Jeffery V. Bailey. Investments. Fifth edition. 1999. p. 90 p.; Samuelson A., Willam. D. Nordhaus. Economie. Economice Paris. 2000. p. 424.; Joseph E. Stiglitz. La grande désillusion. Fayard. 2002, p. 103.; Roger Gibson. Formation of an investment portfolio. M. Financial risk management. Alpina. 2008. 276 p.; Marx K. Money capital and effective capital / Marx K. - Works. - Vol. 3. - pp. 524-571.; Zvi Bode, Alex Kane, Alan J. Marcus. Investments, McGraw-Hill Education. 10th edition. September 9, 2013. Page- 1080.; Boyan Tomov. Investments and regions. Brand mediya. Sofiya. 2017. 122 page.; Alvarado, R., Iñiguez, M., & Ponce P. Foreign direct investment and economic growth in Latin America. Economic Analysis and Policy. 2017. 176-187.; Ronald N. Kahn, The Future of Investment Management, CFA Institute Research Foundation. 2018.; Nikiforos T. Laopodis.Understanding Investments. Theories and Strategies. Second edition. Routledge. London. 2021. 607 page.

⁴ Khachaturov T.S., et al. Ways to improve the efficiency of capital investments and fixed assets. - L.: Science, 1982.- 215 p.; Cherevik E.D. Investment process in developing countries. - M.: Peoples' Friendship University, 1988.- 148 p.; Bal'din K.V., Rukosuev A.V., Perederiaev I.I., Golov R.S. Investment design: a textbook. - M.: Dashkov I.K. 2014 - 366 p.; Bochkov D.V. Investment design, M.: Direct-Media, 2016 68 p.; Askinadzi V.M., Maksimova V.F. Investment analysis: a textbook for the academic bachelor's degree. - M.: Yurait Publishing House, 2017. - 422 p.; Yuzvovich L. I., Maramygin M.S., Knyazeva E.G., Lvova M.I., Kuvaeva Yu.V., Chudinovskikh M.V., Degtyarev S.A. Investments and investment activities. Yekaterinburg. Ural University Publishing House. 2021 u. 488 p.

⁵ G'ozibekov D.G', Qoraliev T.M. Investitsiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish. - Toshkent: Matbuotchi 1993. - 235 b.; Umarov S.R. Qishlok xo'jaligiga investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish: iqt.f.n. ilm. dar. ol.uchun diss. avtoreferati: BMA - Toshkent, 2008. - 22 b.; Vaxobov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. -T.: "Moliya". 2010.321b.; Bekmurodov A.Sh., Karrieva Ya.K., Ne'matov I.U., Nabiev D.H., Kattaev N.T. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisodiyot, 2010.-166 b.; Imomov N.N. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. -T.: 2011. -188 bet.; Shoxa'zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar. -T.: Fan va texnologiya, 2012. -440 b. 145.; Mamatov B.S, Xo'jamqulov D.Yu, Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. - T.: "Iqtisod - moliya". 2014 y. - 608 b.; Navro'z-zoda B.N. Turistik hudud raqobatbardoshligi.Monografiya, Buxoro. Durdona nashriyoti. 2017 yil, 150 b.; Asatullayev X.S., Tursunov B.O. Toshkent.Iqtisodiyot moliya.2019. 520 b., Hamidov O.O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. i.f.d. diss. avtoref. -Samarqand, 2017. - B.68; Isomov B.S. Ekonomicheskii mexanizm investirovaniya v usloviyax formirovaniya rinochnix otnosheniy. Buxara xamd print. 2021.160 c.; Yavmutov D. Sh. Yashil iqtisodiyot'ga o'tish sharoitida mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d.(DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro - 2024 yil, 32 b.

o'zlashtirish jarayonidagiga mavjud muammolar, hududlarning investitsion salohiyatini ro'yobga chiqarish, hududlarga ichki va tashqi sarmoyalarni jalb qilishga oid ilmiy-nazariy tadqiqotlarni amalga oshirib, hududlarning investitsion iqtidorini oshirishga va investitsion jarayonlarni takomillashtirishga o'z hissalarini qo'shganlar. Biroq, ular tomonidan hududlarga investitsiyalarni jalb etish jarayonini tahlil qilish va ularni samaradorligini baholash metodikasini takomillashtirishning usullari hamda uslubiyotlarini ishlab chiqish kabi masalalar yetarli darajada o'rganilmaganligi ushbu dolzarb muammolarni mavzu sifatida tanlashga asos bo'lib xizmat qildi.

Dissertatsiya tadqiqotining Dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlantirishni takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Iqtisodiy hududlarning investitsion jarayonlarini tahlil qilish va baholash metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat

Tadqiqotning vazifalari:

"investitsiyalar" hamda "investitsion jarayon" tushunchalari mohiyatini va investitsiyalarning hududlar iqtisodiyotini rivojlanishini ta'minlashdagi ahamiyatini yoritib berish;

hududlarning investitsiya jarayonini tahlil qilish va baholashga doir uslubiy yondashuvlarni tahlil qilish;

mintaqalarda investitsiya jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish va muvofiqlashtirish usullarini o'rganish;

O'zbekiston Respublikasi hududlarida investitsiyalarni o'zlashtirishning joriy holati, rivojlanish tendentsiyalarini tahlil qilish;

O'zbekiston Respublikasi hududlarida investitsion faollik, salohiyat va risklarini baholash metodikasini ishlab chiqish;

hududiy investitsiya loyihalarini tanlash tahlili va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash;

mintaqaviy investitsiyalarni moliyalashtirishning ko'p manbali tizimini shakllantirish;

hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat strategiyasi doirasida mintaqaviy investitsion faoliyatni prognozlash;

mintaqada investitsiya jarayonini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy hududlar sifatida Buxoro viloyat va tumanlar investitsion faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti hududlarda investitsiyalarni jalb etish va o'zlashtirish tahlili va baholash metodikasini takomillashtirish jarayonlari bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, monografik tahlil, kompleks yondashuv, statistik va moliyaviy tahlil, anketa so'rov, ekonometrik modellashtirish va prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mintaqada ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashga yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirishda aylanma fondan foydalanish asosida pul oqimlarini qo'llab-quvvatlash, moliyaviy resurslarni to'plash, investitsiyalar jalb etish va ularni moliyalashtirishga asoslanuvchi "revolver" mexanizmiga ustuvorlik berish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

hududlarda investitsion faoliyatning samaradorligini aniqlashda investitsion faollikning intensiv va ekstensiv ko'rsatkichlari uyg'unlashtirilgan integral indikatorlar (ijtimoiy- 15%, iqtisodiy-30 %, ekologik-30%, institutsional-25%)ga asoslanuvchi ko'p mezonli baholash tizimi ilmiy asoslangan;

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi ustun hududlarda investitsion salohiyatni oshirishda mahalliy drayverlardan samarali foydalanish uchun xorijiy investitsiyaga asoslanuvchi agrar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Buxoro agropolis" erkin iqtisodiy hududi taklifi asoslangan;

O'zbekistonda hududiy investitsiya faoliyatini multiplikativ modelning vaqt seriyasida har bir darajasini trend, mavsumiy va tasodifiy komponentlaridan foydalangan holda 2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

"investitsiyalar" hamda "iqtisodiy hududlar" tushunchalarini uslubiy yondashuvga ko'ra mukammallashgan tasnifi asoslangan;

iqtisodiy hududlarda investitsiyalarga doir qarorlarini qabul qilish sanoat va qishloq xo'jaligining investitsiyalarga bo'lgan ehtiyoj darajasi, infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan loyihalar soni, investitsion soliq ta'tillari joriy etiladigan hududlar kabi yuqori ta'sir ahamiyatiga ega bo'lgan ko'rsatkichlar hududlarning investitsion jozibadorligini baholash uslubiyoti ishlab chiqilgan;

hududlarda investitsiyalarning shakllantirish jarayoni tahlili natijasida investitsion faollik, investitsion salohiyat, investitsion risk omillarini hisobga olgan holda hududlar bo'yicha investitsiyalarni o'zlashtirishni baholash metodikasi ishlab chiqilgan;

hududlarning iqtisodiy va tabiiy imkoniyatlari hisobga olingan holda investitsion jarayonlarni rivojlantirishning quyidagi jihatlari o'z ifodasini topmog'i lozimligi asoslangan.

Birinchi, hududlarning yer maydon va tabiiy boyliklari, aholining mehnatga layoqatli qismini e'tiborga olgan holda investitsion jarayonni tashkil etish.

Ikkinchi, xorijiy sarmoyadorlar va ichki hamda tashqi investitsiyalarni jalb qilish vositasida qishloq iqtisodiy erkin hududlar klasterlari tashkil qilish.

Uchinchi, investitsiyalarning ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohalariga o'zlashtirilgan hajmi, miqdori, hamda jalb qilish mexanizmlariga qarab soliq imtiyozlarini qo'llash.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotni amalga oshirish jarayonida qo'llanilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar va usullarning tadqiqot maqsadi bilan mosligi hamda ilmiy asoslanganligi, tahlil uchun olingan ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amalda sinovdan o'tgani, shuningdek, olingan natijalarning amaliyotda foydalanilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining

ilmiy ahamiyati olingan natijalarning nazariy jihatdan asoslanganligi, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning iqtisodiy hududlarda investitsiyalarni jalb etishni boshqarish tizimi va investitsiyalarga doir qarorlarini qabul qilishda hamda ularni baholash yo‘llarini takomillashtirish masalalariga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa Yangi O‘zbekistonni barpo etish, «O‘zbekiston — 2030» strategiyasini amalga oshirish jarayonida, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalarni belgilashda hamda iqtisodiy ta’lim yo‘nalishi talabalariga «Mintaqa iqtisodiyoti», «Xorijiy investitsiyalar», «Hududni barqaror rivojlantirish», «Milliy iqtisodiyot» kabi fanlarni o‘qitishda keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqtisodiy hududlarning investitsion jarayonlarini tahlil qilish va baholash metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

mintaqada ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashga yo‘naltirilgan loyihalarni moliyalashtirishda aylanma fondan foydalanish asosida pul oqimlarini qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy resurslarni to‘plash, investitsiyalar jalb etish va ularni moliyalashtirishga asoslanuvchi “revolver” mexanizmiga ustuvorlik berish maqsadga muvofiqligini asoslash taklifidan O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-son “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2026-yil 12-yanvardagi 07-14-00013-son ma‘lumotnomasi). Natijada, mintaqada aylanma fondan foydalanish asosida pul oqimlarini qo‘llab-quvvatlash sharoitida hududning o‘z resurslaridan oqilona foydalanish va ichki salohiyatni oshirishga imkon yaratgan;

hududlarda investitsion faoliyatning samaradorligini aniqlashda investitsion faollikning intensiv va ekstensiv ko‘rsatkichlari uyg‘unlashtirilgan integral indikatorlar (ijtimoiy- 15%, iqtisodiy-30 %, ekologik-30%, institutsional-25%)ga asoslanuvchi ko‘p mezonli baholash tizimini qo‘llash taklifidan O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-son “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2026-yil 12-yanvardagi 07-14-00013-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Buxoro viloyatining investitsion aktivlik indeksi 0,364 va respublikaning indeksi 0,396 darajada barqaror investitsion aktivlik indeksi sifatida hududlarning investitsion jozibadorligini baholash aniqligi ortgan.

qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi ustun hududlarda investitsion salohiyatni oshirishda mahalliy drayverlardan samarali foydalanish uchun xorijiy investitsiyaga asoslanuvchi agrar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “Buxoro agropolis” erkin iqtisodiy hududini tashkil etish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni doirasida Buxoro viloyati hokimining «Buxoro viloyatida kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, xizmat ko‘rsatish va turizmni rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2024-yil 16-avgustdagi 379-2-0-Q/24-son qarorini ishlab chiqishda

foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2026-yil 12-yanvardagi 07-14-00013-son ma‘lumotnomasi). Ushbu yangilikni amaliyotga joriy etish viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga mo‘ljallangan dasturni ishlab chiqishda foydalanilgan;

O‘zbekistonda hududiy investitsiya faoliyatini multiplikativ modelning vaqt seriyasida har bir darajasini trend, mavsumiy va tasodifiy komponentlaridan foydalangan holda 2030-yilgacha ishlab chiqilgan prognoz parametrlari Buxoro viloyati investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi tomonidan investitsiyalar jalb etishning mintaqaviy dasturlari va yo‘l xaritalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2026-yil 12-yanvardagi 07-14-00013-son ma‘lumotnomasi). Ushbu prognoz ko‘rsatkichlaridan foydalanish 2030-yilga borib, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 63,5 foizga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanlarda, jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprotatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop ettirilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik Dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shulardan, 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 115 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti ko‘rsatilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi asoslangan, ilmiy ishning ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy natijadorligi, tadqiqotni amaliyotga joriy etilishi, tadqiqot natijalarning e‘lon qilinganligi, ishning tarkibiy tuzilishiga oid ma‘lumotlar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning «**Mintaqada investitsiya jarayonini tahlil qilish va baholashning nazariy va uslubiy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida Investitsiya va investitsiya jarayonlarining iqtisodiy mazmuni, mohiyati, hududlarning investitsiya jarayonini tahlil qilish va baholashga doir uslubiy yondashuvlar asosida mintaqaviy investitsiya jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish zarurati hamda muvofiqlashtirish usullari yoritib berilgan.

Ma‘lumki, investitsiyalarsiz ishlab chiqarilgan mahsulot va ko‘rsatilgan xizmatlarning raqobatbardoshligini ta‘minlash, asosiy vositalarning eskirishi va uning oqibatlarini bartaraf etish, qimmatli qog‘ozlarni sotib olish hamda boshqa korxonalarining aktivlariga investitsiya qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish oson kechmaydi. Tadqiqot jarayonida investitsiya tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari o‘rganilib, mavjud manbalarda unga berilgan ilmiy ta‘riflar mohiyati to‘la yoritilmaganligi aniqlandi. Xorijiy mualliflarning mavjud ta‘riflarini tahlil qilgan holda “investitsiya” tushunchasi o‘ziga xos

xususiyatlarga ega deb hisoblaymiz (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Investitsiya tushunchasining ta'riflari va yondashuvi⁶

T/r	Muallif	Ta'rif	Yondashuv
1.	Jahon Banki (World Bank)	Investitsiya - bu iqtisodiy faoliyatda foydalanish maqsadida moliyaviy resurslarning moddiy aktivlarga aylantirilishi va kelajakda daromad olish uchun sarflanadigan mablag'lar.	Amaliy-rivojlanish yondashuvi
2.	Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OECD)	Investitsiya - bir mamlakatdagi rezident tomonidan boshqa mamlakatdagi korxonaga kapital kiritish orqali uzoq muddatli iqtisodiy munosabatlar o'rnatish.	Xalqaro-instituttsional yondashuv
	Xalqaro Valyuta Fondi (IMF)	Investitsiya - iqtisodiy subektlarning kelajakda daromad olish yoki boshqa iqtisodiy foyda ko'rish maqsadida kapital aktivlariga sarf qiladigan moliyaviy resurslari.	Makroiqtisodiy-statistik yondashuv
3.	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Rivojlanish bo'yicha Konferentsiyasi (UNCTAD)	Investitsiya - xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonining muhim elementi bo'lib, mamlakatlarda kapital harakati orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.	Xalqaro savdo va rivojlanish yondashuvi
4.	J. Keynes	Investitsiya - kapital aktivlarining joriy narxini kelajakdagi kutilayotgan daromadlar bilan solishtirib, optimal tanlov qilish jarayoni.	Keynscha makroiqtisodiy yondashuv
5.	W. Sharpe	Investitsiya - kelajakda qoniqarli daromad olish umidida bugungi kunda pul.	Moliyaviy bozorlar yondashuvi
6.	P. Samuelson	Investitsiya - joriy iste'moldan voz kechish orqali kelajakda ko'proq iste'mol qilish imkoniyatini yaratish.	Neoklassik iqtisodiy yondashuvi
7.	F. Mishkin	Investitsiya - kapital aktivlarini sotib olish orqali kelajakda pul oqimini olish maqsadida amalga oshiriladigan xarajatlar.	Pul va bank ishi yondashuvi
8.	R. Brealey, S. Mers	Investitsiya - kelajakdagi noaniq pul oqimlarini olish maqsadida bugungi aniq pul mablag'laridan voz kechish.	Korporativ moliya yondashuvi
9.	L. Gitman	Investitsiya - ma'lum aktivga yoki aktivlar guruhiga pul sarflash orqali kelajakda daromad olish jarayoni.	Shaxsiy investitsiyalar yondashuvi
10.	Jiyanov L.N. ⁷	Investitsiya - bu iqtisodiy subektlar tomonidan mablag'larni samarali taqsimlash va riskni boshqarish asosida moliyaviy, moddiy va nomoddiy aktivlarga strategik yo'naltirish orqali uzoq muddatli iqtisodiy qiymat yaratish va kapital rentabelligini ta'minlash jarayoni.	Zamonaviy integralashgan yondashuv

Shuni ta'kidlash lozimki, investitsiya jarayoni murakkab ko'p qirrali jarayon bo'lib, uni tahlil va baholash jarayonida ko'plab omillar ta'sirini hisobga olish zarur. Amaliy nuqtai nazardan, bunday omillarni, ularning investitsiya faoliyati va investitsiya samaradorligiga ta'sir qilish mexanizmini shakllantirish investitsiya

⁶ Muallif ishlanmasi

⁷ Muallif tomonidan taklif etilgan ta'rif.

siyosatini ishlab chiqish va investitsiya jarayonini yanada samarali boshqarish uchun asosdir. Bundan tashqari, bugungi kunda ijtimoiy takror ishlab chiqarish va uning samarali ishlashini ta'minlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan investitsiya jarayoni uyushgan, barqaror va shuning uchun samaralidir. Bunday vaziyatda har qanday sarmoyador investitsiya obyekti sifatida eng yuqori investitsiya samaradorligini ta'minlay oladigan loyihalarni tanlaydi. Bunday tanlov investitsiya jarayonining tarkibiy qismlarini baholash va prognozlash, shu bilan birgalikda investitsion faollik, investitsion jozibadorlik, investitsion muhit, investitsiya loyihalari tahlil qilishni taqozo etadi.

Ayniqsa, hududlarning investitsiya faolligi darajasini va investitsiya faoliyati samaradorligini baholash uchun zanjirli indeks tamoyili asosida hisoblangan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish ko'pgina iqtisodchi olimlar tomonidan tavsiya etiladi. Bunda ma'lum bir iqtisodiy ko'rsatkichlar guruhining iqtisodiy parametrlarining cheklangan vaqt oralig'ida o'zgarishi indeksleri birgalikda ko'paytiriladi. Bunda hisob-kitoblarning to'g'riligini ta'minlash uchun ko'rsatkichlarni ularning tuzilishida ham, vaqt jihatidan ham solishtirish tamoyiliga rioya qilish lozim.


Hududdagi investitsiya jarayoni samaradorligini baholashni nazarda tutuvchi ko'rsatkichlar hududdagi asosiy fondlar holatini miqdoriy va sifat jihatdan tavsiflovchi quyidagi asosiy ko'rsatkichni kiritish uslubiy jihatdan to'g'ri bo'ladi:

- asosiy vositalarning o'zgarish indeksi;
- asosiy fondlar kiritilishining asosiy kapitalga investitsiyalar nisbati o'zgarishi indeksi;
- asosiy fondlarning saqlanish darajasining o'zgarish indeksi;
- asosiy vositalarni yangilash koeffitsienti qiymatining o'zgarishi indeksi va asosiy vositalarning foydalanishdan chiqarish koeffitsienti qiymatining o'zgarishi indeksi.

Asosiy vositalarning saqlanish darajasi ko'rsatkichi asosiy vositalarning eskirish darajasi ko'rsatkichiga teskari ko'rsatkich sifatida hisoblanadi va mintaqadagi investitsiya faoliyati samaradorligini baholash indeksidir. Investitsion faollik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri bu mintaqadagi investitsiya muhitidir. Shu bois investitsiya muhitini har tomonlama baholash mintaqadagi investitsiya jarayonini monitoring qilish tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Odatda, mintaqaning investitsiya muhitini progressivligini baholash uchun ham zanjirli indeks tamoyiliga asoslanadi. Bunday holda, ma'lum vaqt oralig'ida investitsiya muhitining turli tarkibiy qismlari baholanadi. Ularning barchasi mintaqadagi investitsion muhitni tavsiflovchi ikkita asosiy parametrga birlashtirilgan holda mintaqaning investitsion salohiyati hamda mintaqaviy investitsiya xatarlari darajasini o'z ichiga oladi.

Bozor munosabatlari sharoitida davlatning investitsiya jarayonini tartibga solish bo'yicha faoliyatiga, bozor iqtisodiyotining holati va rivojlanish darajasi, uning ijtimoiy maqsad va vazifalarni hal qilishga yo'naltirilganlik darajasi ham ta'sir qiladi. Investitsion jarayoni esa ikki bosqichli tizim bo'lib, davlat va mintaqaviy qismlardan iborat investitsiya predmeti va obyekti o'rtasidagi o'zaro manfaatli munosabatlarni o'z ichiga olgan darajalar, shuningdek, sarmoya daromadlari va yoki boshqa ta'sirlarni inobatga olish va o'zaro hamkorlik qilish maqsadidagi faoliyatni

ifodalaydi. Investitsiya jarayonida sarmoyalarni shakllantirish va o'zlashtirishga doir qaror qabul qiluvchilar ishtirok etadilar (1-rasm).



1-rasm. Hududlarda investitsiyalar jarayonida resurslarni shakllantirish va o'zlashtirish fazalari⁸

Davlat investitsiya jarayonining barcha ishtirokchilari, shu jumladan, real loyihalarni amalga oshirish uchun yagona me'yoriy-huquqiy bazani yaratganligi sababli tizimni tashkil etuvchi omil vazifasini bajaradi. Har qanday iqtisodiy hududning taraqqiyot asosi unga yo'naltirilgan va samarali o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmiga bog'liq deb hisoblash mumkin. Chunki, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi bunga yaqqol misoldir. Albatta, iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish investorlar uchun ma'lum shart-sharoitlar hamda standartlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Mamlakatimiz viloyat va tumanlariga investitsiyalar jalb qilishda hududga foyda olish maqsadida investorlar tomonidan o'z sarmoyalarning joylashtirish jarayonlari bilan bog'liq hisoblanadi. Iqtisodiy hududda investitsion faollik investorlarning o'z investitsiyalaridan oladigan daromadlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq hisoblanadi.

Muallif fikricha, mintaqaviy darajada investitsiyalar samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarga quyidagilar kiradi:

Birinchidan, amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning samaradorligi investitsiya muhitining asosiy determinantlaridan biri hisoblanadi. Bu omil davlat tomonidan qabul qilinadigan iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarning real natijalarini, ularning belgilangan maqsadlarga erishish darajasini hamda jamiyat farovonligiga qo'shadigan ta'sirini aks ettiradi.

Ikkinchidan, mintaqaning investitsion jozibadorligi investorlar nazarida ma'lum hudud yoki mintaqaning qanchalik investitsiya uchun qulay muhitga ega ekanligini belgilovchi integral ko'rsatkichdir. Bu omil mintaqaning geografik joylashuvi, tabiiy resurslar mavjudligi, transport infratuzilmasi rivojlanganligi, mehnat resurslari salohiyati, bozor sig'imi va raqobat muhiti kabi omillarni o'z ichiga oladi.

Uchinchidan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratilganligi chet el kapitalini mintaqaga tortish maqsadida amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar tizimini anglatadi. Bu omil qonuniy-huquqiy bazaning

⁸ Muallif ishlanmasi.

takomillashtirilganligi, xorijiy investorlar uchun imtiyozlar va kafolatlar tizimi bilan tavsiflanadi.

To'rtinchidan, mintaqaviy darajada soliq tizimini takomillashtirilganligi mahalliy soliq siyosatining investitsiya faolligini rag'batlantirish yo'nalishidagi samaradorligini ifodalaydi. Bu omil soliq stavkalari maqbulligi, soliq to'lash jarayonlarining soddalashtirilganligi, soliq ma'muriyatining zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etilganligi hamda soliq imtiyozlari tizimining shaffoflik va adolatlilik tamoyillari asosida qurilganligini o'z ichiga oladi.

Beshinchidan, amalga oshirilayotgan mintaqaviy investitsiya siyosatining samaradorligi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan investitsiya faolligini rag'batlantirish bo'yicha qabul qilinadigan strategik qarorlar va amaliy chora-tadbirlarning natijadorligini aks ettiradi. Bu omil investitsiya loyihalarini tanlash mezonlari, investorlar bilan hamkorlik mexanizmlari, mintaqaviy investitsiya dasturlari ijrosining monitoring va baholash tizimi orqali tahlil qilinadi.

Oltinchidan, hududiy investitsiya infratuzilmasining takomillashtirilganlik darajasi investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi moddiy-texnikaviy va institutsional bazaning rivojlanganlik darajasini ifodalaydi. Bu omil transport-kommunikatsiya infratuzilmasi, energetika tizimi, aloqa vositalari, moliyaviy institutlar tarmog'i, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimi kabi elementlarning investitsiya ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Yettinchidan, investitsiya xavfi darajasi investorlar tomonidan ma'lum mintaqada kapital kiritish jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan potentsial yo'qotishlar ehtimolini ifodalaydi. Bu omil siyosiy barqarorlik, iqtisodiy o'zgaruvchanlik, qonun-qoidalarning o'zgarishi, valyuta kursi tebranishlari, tabiiy ofatlar va boshqa makroiqtisodiy noaniqliklar ta'sirini o'z ichiga oladi.


Sakkizinchidan, boshqa qo'shimcha omillar investitsiya muhitiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi, ammo yuqorida keltirilmagan omillarni qamrab oladi. Bularga mahalliy aholi mentaliteti, madaniy xususiyatlar, ekologik holat, klimatik sharoitlar, xalqaro hamkorlik darajasi, innovatsion salohiyat rivojlanganligi va raqamli iqtisodiyot infratuzilmasining shakllanganlik darajasi kabilarni o'z ichiga oladi.

Mintaqalarning investitsion jozibadorligi investitsiya muhiti, investitsiya infratuzilmasining rivojlanish darajasi, investitsiya resurslarini jalb qilish imkoniyatlari va investitsiya daromadlari va investitsiyalarning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan boshqa omillar nuqtai nazaridan mamlakatning alohida mintaqalarining ajralmas xususiyatidir.

Darhaqiqat, davlat xo'jalik yurituvchi subekt sifatida faoliyat yuritish jarayonida investitsiya resurslarini ishlab chiqaradi va shu tariqa investitsiya jarayonining bevosita ishtirokchisiga aylanadi. Investitsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solishda barcha davlatlarning boshqaruv organlari tomonidan qo'llaniladigan ma'muriy-iqtisodiy xarakterdagi qonuniy belgilangan shakl va usullar tushuniladi.

Hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning davlat maqsadlarini ta'minlaydigan investitsiya siyosatini amalga oshirish darajalarini investitsiyalarning samaradorligini oshirish, turli investitsiya obyektlariga investitsiyalar uchun xavfsiz shart-sharoitlarni ta'minlash. Investitsion jarayonlarni

davlat tomonidan tartibga solish davlat investitsiyalarini bevosita boshqarish hamda tashkil etishni ifodalaydi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Hududlarda investitsiyalar jarayonida boshqarish va tashkil etish mexanizmi⁹

Investitsiya jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish tegishli subektlarning investitsiya faolligini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishning turli shakl va usullarini, shuningdek davlatning investitsiya faoliyatida bevosita ishtirokini o'z ichiga oladi. Davlat tegishli qonun hujjatlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni chiqarish va ularga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, investitsiya siyosatini amalga oshirish orqali investitsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatishning iqtisodiy (bilvosita) va ma'muriy (to'g'ridan-to'g'ri) usullaridan foydalanadi.

Dissertatsiyaning «**Hududiy investitsiya jarayonlarini iqtisodiy tahlil qilish va baholash**» deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston Respublikasi hududlarida investitsiyalarni o'zlashtirishning joriy holati, rivojlanish tendentsiyalari va dinamikasini tahlil qilish hamda baholash asosida hududlarida investitsion faollik, salohiyat, risklarini baholash metodikasidan foydalangan holda

⁹ Muallif ishlanmasi.

hududiy investitsiya loyihalarini tanlash tahlili hamda ularning iqtisodiy samaradorligini baholash usullari yoritib berilgan.

O‘zbekiston Respublikasida investitsiyalarni o‘zlashtirishdagi hududiy farqlar mavjud bo‘lib, iqtisodiy va ijtimoiy omillar, infratuzilma holati, hududiy boshqaruvning samaradorligi, yer resurslari va boshqa ko‘plab faktorlar bilan bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin. Hududiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda investitsiyalarni jalb qilishning muvaffaqiyatli bo‘lishida miqdoriy o‘zgarishlar mavjud (2-jadval).

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasining tarkibiy hududlarida jalb qilingan investitsiyalar holatini¹⁰

Hudud	2020-yil (mlrd. so‘m)	2021-yil (mlrd. so‘m)	2022-yil (mlrd. so‘m)	2023-yil (mlrd. so‘m)	2024-yil (mlrd. so‘m)
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	7089,8	8110,7	10254	12959,2	20530,9
Andijon viloyati	9622,6	11176,6	14339,8	18639,1	28132,2
Buxoro viloyati	12183,9	20528,3	21638,3	31030,5	48961,2
Jizzax viloyati	12545,4	9233,6	10373,9	14970,9	23058,6
Qashqadaryo viloyati	20557,6	17359,1	16012,8	21138	32996,9
Navoiy viloyati	15688,4	15020,1	17958,1	26398,6	34024,5
Namangan viloyati	12007,2	12982	14775,1	19220,1	53340,5
Samarqand viloyati	14656,4	15641,6	18917,1	25717,1	29652,5
Surxondaryo viloyati	10068,2	12037,8	11569,4	18307,7	15277,5
Sirdaryo viloyati	7191,9	8051,8	12354,6	15871,8	10942,8
Toshkent viloyati	21148,6	28113,6	35767,7	47709,3	70529,8
Farg‘ona viloyati	11040	12625,2	15419,3	19955	22383,5
Xorazm viloyati	5391,8	8292	8769,7	11666,1	14795,3
Toshkent shahri	50371,3	58172,7	56847,9	71143,7	88330,6

O‘zbekiston Respublikasining hududlari kesimida 2024 yil uchun qabul qilingan investitsiyaning eng ko‘p ulushi yani 18 foizi Toshkent shahriga to‘g‘ri keladi. Hududlar kesimida investitsiyaning jalb qilinishi bo‘yicha ikkinchi va uchinchi o‘rinlar Toshkent viloyati va Namangan viloyatlariga to‘g‘ri kelyapti. Respublikada jalb qilingan jami investitsiyaning 14 va 11 foizi mos ravishda bu viloyatlar hissasiga to‘g‘ri kelyapti. Jami qabul qilingan investitsiyaning eng kam ulushi Surxondaryo, Xorazm va Sirdaryo viloyatlari hisobiga to‘g‘ri kelyapti. Bu esa O‘zbekiston Respublikada qabul qilingan investitsiyaning 3 va 2 foizini tashkil qilmoqda

Toshkent shahar O‘zbekistonning iqtisodiy markazi bo‘lib, 2019-2023 yillar davomida investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshgan. Agar Toshkent shahriga 2020-yilda 50371,3 mlrd.so‘m investitsiya kiritilgan bo‘lsa, 2024 yilda bu miqdor 88330,6 ga yetgan.

$$K = \sqrt[5]{\frac{91640}{88330,6} \cdot \frac{100529}{91640} \cdot \frac{109418}{100529} \cdot \frac{118307}{109418} \cdot \frac{127196}{118307}} = 1,076$$

¹⁰ Muallif ishlanmasi

Toshkent shahriga kiritiladigan investitsiya har yili o'rtacha 7,6 foizdan o'sib boradi.

$$K = \sqrt[5]{\frac{76162,4}{70529,8} \cdot \frac{87998,4}{76162,4} \cdot \frac{99834,4}{87998,4} \cdot \frac{111670,4}{99834,4} \cdot \frac{123506,4}{111670,4}} = 1,119$$

Toshkent viloyatiga kiritiladigan investitsiya har yili o'rtacha 11,9 foizdan o'sib borishi kuzatiladi.

$$K = \sqrt[5]{\frac{52085,6}{48961,2} \cdot \frac{60491,3}{52085,6} \cdot \frac{68897}{60491,3} \cdot \frac{77302,7}{68897} \cdot \frac{85708,4}{77302,7}} = 1,118$$

Buxoro viloyatiga kiritiladigan investitsiya har yili o'rtacha hisobdan 11,8 foizdan o'sib borishi kuzatiladi.

$$K = \sqrt[5]{\frac{16437,2}{14795,3} \cdot \frac{18655,3}{16437,2} \cdot \frac{20873,4}{18655,3} \cdot \frac{23091,5}{20873,4} \cdot \frac{25309,6}{23091,5}} = 1,113$$

Xorazm viloyatiga kiritiladigan investitsiya har yili o'rtacha hisobdan 11,3 foizdan o'sib borishi kuzatiladi.

$$K = \sqrt[4]{\frac{8110,7}{7089,8} \cdot \frac{10254}{8110,7} \cdot \frac{12959,2}{10254} \cdot \frac{20530,9}{12959,2}} = 1,304$$

Qoraqalpog'iston Respublikasiga kiritilgan investitsiyaning o'rtacha o'sish sur'ati 30,4 foizni tashkil qilyapti.

$$K = \sqrt[4]{\frac{15641,6}{14656,4} \cdot \frac{18917,1}{15641,6} \cdot \frac{25717,1}{18917,1} \cdot \frac{29652,5}{25717,1}} = 1,193$$

Samarqand viloyatiga kiritilgan investitsiyaning o'rtacha o'sish sur'ati 19,3 foizni tashkil qilyapti.

Farg'ona viloyatiga 2020 yilga 11040 mlrd.so'm investitsiya kiritilgan bo'lsa, yillar davomida hududga kiritilgan investitsiyaning o'rtacha miqdori ortib brogan. Natijada 2024-yilda investitsiyalar 22383,5 mlrd.so'mni tashkil qilgan. Bu investitsiyaning aksariyat qismi sanoat, kimyo va to'qimachilik sektorlariga jalb qilingan.

Andijon viloyatida investitsiyalar o'sishining asosiy manbasi tekstil sanoati va qishloq xo'jaligi sohalari bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, huduga 2020 yili 9622,6 mlrd.so'm investitsiya kiritilgan bo'lsa, 2024 yili hududni investitsiya qabul qilishi 28132,2 mlrd.so'mga yetgan.

Namangan viloyatiga ham investitsiyalarni qabul qilish oxirgi yillarga o'sib borganini ko'ramiz. Bunda 2020 yili hududga investitsiya jalb qilinishi 12007,2 mlrd.so'mni tashkil qilgan. Keyingi yillar hududga investitsiya kelishi ortib borib natijada 2024 yili 53340,5 mlrd.so'mni tashkil etgan.

Jizzax viloyatida sanoat va transport infratuzilmasi rivojiga qaratilgan investitsiyalar o'sib borgan. Agar Jizzax viloyatiga 2020 yili investitsiya jalb qilinishi 12545,4 mlrd.so'm tashkil qilgan bo'lsa, 2020 yilga kelib investitsiya oldingi davrga nisbatan biroz pasaygan. Natijada 9233,6 mlrd.so'mni tashkil etgan. Keyingi yillar hududga investitsiya kelishi ortib borganing ko'ramiz. Buning natijasida 2024 yili 23058,6 mlrd.so'mni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasining har bir hududlarida investitsion faollik, salohiyat va risklarni baholash bo‘yicha joriy qilingan tizimlar va yondashuvlar hududlarning rivojlanishini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonni yanada chuqurroq o‘rganish maqsadida, erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) mamlakatda ishlab chiqarishni va tashqi savdoni rivojlantirish uchun ajratilgan maxsus hududlar hisoblanadi. Bu zonalarlarda investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun imtiyozlar, EIZda soliq stavkalari pasaytirilgan, bojxona rasmiylashtiruvi soddalashtirilgan va eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar uchun turli xil imtiyozlar mavjud ekanligini ko‘ramiz.

O‘zbekistonda hududlar bo‘yicha investitsion faollik, salohiyat va risklarni baholash jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladi. Har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy o‘rishni ta‘minlash uchun hukumat tomonidan ko‘rilayotgan siyosatlar va mexanizmlar samarali tarzda amalga oshirilmoqda. Yangi texnologiyalar, ekologik toza ishlab chiqarish va mintaqaviy integratsiya jarayonlari orqali O‘zbekistonning barcha hududlarida barqaror rivojlanish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Mamlakatimizning mintaqaviy investitsiyalarni rag‘batlantirish va samarali yo‘naltirish bo‘yicha olib borayotgan siyosati mintaqalar o‘rtasidagi farqlarni kamaytirish maqsadida amalga oshirilmoqda. Yangi Erkin iqtisodiy zonalar, texnologik parklar va investitsiya guruhlarini tuzilishi bu jarayonni tezlashtirishga yordam bermoqda.

O‘zbekistonda mintaqaviy investitsion faollik, salohiyat va risklarni baholash jarayoni mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish va barqaror o‘rishni ta‘minlash uchun muhimdir. Har bir hududning o‘ziga xos resurslari, infratuzilma imkoniyatlari, ishchi kuch salohiyati va ekologik sharoitlari investitsiyalarni samarali jalb qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Buning uchun mintaqalararo integratsiyani kuchaytirish, yangi moliyaviy mexanizmlar va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi hududlarida investitsion faollik, salohiyat va risklarni baholash uchun turli xil metodologik yondashuvlar va formulalar qo‘llaniladi. Quyida, ushbu baholash jarayonlari uchun ba‘zi asosiy formulalar va ko‘rsatkichlar keltiramiz.

Bu borada hududning investitsiyalarga qiziqishini va iqtisodiy faolligini o‘lchaydigan koeffitsient hisoblanadi. Bu koeffitsient quyidagicha aniqlanadi.

$$IFK = \frac{I_t}{GDP_t} \quad (1)$$

Bunda $-I_t$ -hududga kiritilgan investitsiyalar hajmi (so‘m yoki dollar).

GDP_t -Hududning yalpi ichki mahsuloti (YaIM).

Bu formula hududlarining investitsiyalarga nisbatan iqtisodiy salohiyatini va jozibadorligini o‘lchashga yordam beradi. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasining hududlari uchun 2024 yildagi bu koeffitsient natijasi aniqlanadi (3-jadval).

Hududiy investitsiya loyihalarini tanlash va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash jarayoni iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash va mintaqalarda resurslarni samarali taqsimlash uchun zarur bo‘lgan vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonning maqsadlardan biri investitsiyalarni maksimal darajada samarali

va adolatli taqsimlash orqali hududlarning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda iborat hisoblanadi. Hududiy loyihalarni tanlashdagi eng muhim faktorlar bular investitsiyalarning hududga bo'lgan ta'siri, iqtisodiy samaradorligi va qaytish imkoniyatlarini o'rganish hisoblanadi. Quyida hududiy investitsiya loyihalarini tanlashda qo'llaniladigan tahlil metodologiyasi shuningdek uning samaradorligini baholash mezonlarini ko'rib chiqamiz.

Birinchidan, hududdagi investitsiya loyihalarini tanlashda, har bir hududning o'ziga xos iqtisodiy sharoitlari va imkoniyatlari hisobga olinishi zarur. Bunda hududiy loyihalarni tanlashda quyidagilarga e'tibor berish kerak.

Ikkinchidan, hududiy investitsiya loyihalarini tanlashda, siyosiy, ijtimoiy va ekologik risklarni ham tahlil qilgan holda amalga oshirish zarurati paydi bo'ladi. Buning uchun loyihani amalga oshirishda har bir risk darajasini alohida o'rganib chiqish lozim.

Uchinchidan, hududda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarni moliyaviy va hukumat tomonidan qo'llab quvvatlanishida asosan quyidagilarga e'tibor qaratish zarur.

To'rtinchidan, hududda loyihani amalga oshirishda samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlardan yana biri uning rentabellik ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu ko'rsatkichni PI (profitability index) orqali belgilab olish kerak bo'ladi.

Beshinchidan, hududda amalga oshiriladigan loyihaning qoplash muddati aniqlanishi investor uchun muhim hisoblanadi. Yani kiritilgan investitsiya miqdorining va bundan kutiladigan daromad miqdorining joriy qiymatini inobatga olgan loyiha qancha muddat o'zini qoplaydi. Bu ko'rsatkich ham investitsiyalarni jalb etishda boshqarish samaradorligini baholashdagi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarining investitsiyalarga nisbatan iqtisodiy salohiyatini va jozibadorligi ko'rsatkichlari¹¹

O'zbekiston Respublikasining hududlari	Investitsiyalar hajmi(mlrd,so'm)	Yalpi hududiy mahsulot hajmi (yillik) (mlrd.so'm)	I.F.K.
Qoraqalpog'iston Respublikasi	20530,9	45658,5	0,450
Andijon viloyati	28132,2	90522,1	0,311
Buxoro viloyati	48961,2	71560,4	0,684
Jizzax viloyati	23058,6	43057,9	0,536
Qashqadaryo viloyati	32996,9	80658,3	0,409
Navoiy viloyati	34024,5	117297,8	0,290
Namangan viloyati	53340,5	68915,7	0,774
Samarqand viloyati	29652,5	99866,1	0,297
Surxondaryo viloyati	15277,5	54354,1	0,281
Sirdaryo viloyati	10942,8	28003,3	0,391
Toshkent viloyati	70529,8	146385,2	0,482
Farg'ona viloyati	22383,5	91333	0,245
Xorazm viloyati	14795,3	51261	0,289
Toshkent shahri	88330,6	281147,4	0,314

Hududiy investitsiya loyihalarini tanlash va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash jarayoni iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va mintaqalarda

¹¹ Muallif ishlanmasi

resurslarni samarali taqsimlash uchun zarur bo'lgan vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonning maqsadlardan biri investitsiyalarni maksimal darajada samarali va adolatli taqsimlash orqali hududlarning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda iborat hisoblanadi. Hududiy loyihalarni tanlashdagi eng muhim faktorlar bular investitsiyalarning hududga bo'lgan ta'siri, iqtisodiy samaradorligi va qaytish imkoniyatlarini o'rganish hisoblanadi. Quyida hududiy investitsiya loyihalarini tanlashda qo'llaniladigan tahlil metodologiyasi shuningdek uning samaradorligini baholash mezonlarini ko'rib chiqamiz.

Birinchi, hududdagi investitsiya loyihalarini tanlashda, har bir hududning o'ziga xos iqtisodiy sharoitlari va imkoniyatlari hisobga olinishi zarur. Bunda hududiy loyihalarni tanlashda quyidagilarga e'tibor berish kerak.

Ikkinchi, hududiy investitsiya loyihalarini tanlashda, siyosiy, ijtimoiy va ekologik risklarni ham tahlil qilgan holda amalga oshirish zarurati paydi bo'ladi. Buning uchun loyihani amalga oshirishda har bir risk darajasini alohida o'rganib chiqish lozim.

Uchinchi, hududda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarni moliyaviy va hukumat tomonidan qo'llab quvvatlanishida asosan quyidagilarga e'tibor qaratish zarur.

To'rtinchi, hududda loyihani amalga oshirishda samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlardan yana biri uning rentabellik ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu ko'rsatkichni PI (profitability index) orqali belgilab olish kerak bo'ladi.

Beshinchi, hududda amalga oshiriladigan loyihaning qoplash muddati aniqlanishi investor uchun muhim hisoblanadi. Yani kiritilgan investitsiya miqdorining va bundan kutiladigan daromad miqdorining joriy qiymatini inobatga olgan loyiha qancha muddat o'zini qoplaydi. Bu ko'rsatkich ham investitsiyalarni jalb etishda boshqarish samaradorligini baholashdagi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Dissertatsiyaning «**Investitsiya jarayonlari samaradorligini oshirishning uslubiy vositalarini ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlari**» deb nomlangan uchinchi bobida mintaqaviy investitsiyalarni moliyalashtirishning ko'p kanalli tizimini shakllantirish, davlat strategiyasi va hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umumiy prognozi doirasida hududiy investitsiya faoliyatini prognozlash orqali mintaqada investitsiya jarayonini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari yoritib berilgan.


Mintaqaviy investitsiyalarni moliyalashtirishning ko'p kanalli tizimi (multikanal tizimi) turli manbalardan, yo'nalishlardan va mexanizmlardan foydalangan holda mintaqaviy rivojlanishni moliyalashtirishning kompleks yondashuvi hisoblanadi. Mintaqaviy investitsiyalarni samarali va barqaror moliyalashtirishning ko'p kanalli tizimi, asosan, mintaqalardagi iqtisodiy o'sish, infratuzilma rivoji, ish o'rinlarini yaratish, ijtimoiy xizmatlarni yaxshilash va barqaror rivojlanishga erishish uchun zarur bo'lgan resurslarni jalb qilishga qaratilgan.

Ushbu tizimning asosiy maqsadi investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilish va ularning turli kanallari orqali mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirishni ta'minlashdir. Bu tizimning samarali ishlashi uchun investitsiya manbalarining keng doirasidan foydalanish kerak, shu bilan birga, ularning o'zaro muvofiqligini ta'minlash zarur.

Xorijiy mamlakatlarda aylanma mablag'lar mexanizmini joriy etish hisobiga ushbu budjetdan tashqari mablag'larni mintaqaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga safarbar qilish yo'lga qo'yilmoqda. Ushbu mexanizm yuqori rentabellik darajasiga ega bo'lgan loyihalarni qo'llab-quvvatlash sharoitida pul oqimlarining doimiy aylanishini va uning moliyaviy hajmini avtomatik ravishda to'ldirishni nazarda tutadi.

Aylanma fondlar moliyaviy resurslarning aylanishi va yangilanishi sodir bo'ladigan fondlar. Bunday fondlarda, davlat budjetidan moliyalashtirishning yuqori tavakkalchiliklari bilan ajralib turadigan investitsiya loyihalarini doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlar hisobiga yangi moliyaviy resurslarning doimiy aylanishi va kirib kelishi amalga oshiriladi. Aylanma mablag'lar amalda davriy takrorlanuvchi iqtisodiy faoliyatni o'z ichiga olgan maqsadli investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun budjet va budjetdan tashqari moliyalashtirish manbalaridan moliyaviy oqimlarni boshqarish samaradorligini oshirish vositalari sifatida qo'llaniladi.

Aylanma fondlardan foydalanishning asosiy vazifasi investitsiya loyihasidan maksimal foyda olish emas, balki investitsiya loyihasi doirasida pul oqimlari jarayonlarini qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy resurslarni to'plashdir. Aylanma fondlar mintaqalarda ijtimoiy va ishlab chiqarishga yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirishning samarali vositasidir (3-rasm).



3-rasm. Investitsiyalarni moliyalashtirishning revolver mexanizmi¹²

Mintaqalarda investitsiyalarni moliyalashtirishga qaratilgan revolver moliyalashtirish mexanizmi sifatida bir qator afzalliklarga ega: investitsiya loyihasining ijobiy ta'siri va ushbu mablag'larni yangi investitsiya loyihalariga investitsiyalash natijasida mablag'larni to'liq yoki qisman qaytarish imkoniyati;

¹² Muallif ishlanmasi.

– mahalliy va jahon moliya bozorlaridagi doimiy o‘zgarishlar tendensiyalari yirik investorlarga aylanma mablag‘lardan barqaror daromadlilik bilan barqaror moliyalashtirish manbalari sifatida foydalanish imkonini beradi;

– aylanma fond investitsiyalarining mo‘ljallangan maqsadining tor ixtisoslashuvi loyihalarni ishlab chiqish va loyiha faoliyati doirasidagi barcha jarayonlarni yuqori darajada standartlashtirishni ta‘minlashga yordam beradi, bu turli xil ekspertiza va xavflarni baholash tartib-qoidalarini osonlashtirishga imkon beradi;

– aylanma fond ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etishni - imtiyozli foiz stavkalari va kreditni to‘lash muddati uzaytirilgan uzoq muddatli kreditlar orqali, ham bilvosita ishtirok etishni - manfaatdor investorlar va kreditorlar uchun kafolatlar berish shaklida o‘z ichiga oladi;

– risklarni sug‘urta qilish va joriy qarz majburiyatlarini qayta moliyalashtirish imkoniyatini beradi;

– investitsiya kapitalining ulushi past bo‘lgan dastlabki bosqichlarda investitsiya mablag‘larini tez jalb qilish va to‘plash imkoniyatini yaratadi;

– obligatsiyalar chiqarish orqali, shuningdek, moliyaviy resurslarni past darajadagi tavakkalchilik bilan qisqa muddatli loyihalarga investitsiyalash orqali qo‘shimcha moliyaviy resurslarni to‘plash imkoniyatini shakllantiradi.

Keng ko‘lamli afzalliklarga qaramay, aylanma fond mexanizmidan foydalanish ma‘lum qiyinchiliklar va kamchiliklarga ham ega. Aylanma mablag‘larning asosiy muammosi ularning noqulay iqtisodiy sharoitlarga va yuqori darajadagi riskli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish shartlariga moslashish qobiliyatining zaifligidir, chunki qo‘llab-quvvatlanadigan investitsiya loyihasining salbiy ko‘rsatkichlari bo‘lsa, aylanma fond bir qismini yo‘qotadi. Fondni to‘ldirish va investorlar oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun qo‘shimcha moliyalashtirishni jalb qilish zarurati tug‘iladi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy hududlarda investitsiyalarning prognoz natijalarini aniqlashda, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining statistik ko‘rsatkichlaridan foydalanamiz. Respublikada asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2020-yil birinchi choragidan 2024-yilning uchinchi choragidagi statistik ma‘lumotlarda yillar davomida choraklik ko‘rsatkichlar o‘rtasida mavsumiylik mavjud (4-rasmga qarang).

Iqtisodiy hududlarda investitsiyalarni yo‘naltirish va ulardan samarali foydalanishga doir maxsus multiplikativ modeldan foydalanamiz.

$$Y = T * S * E \quad (2)$$

Ushbu model vaqt seriyasining har bir darajasini trend (T), mavsumiy (S) va tasodifiy (E) komponentlarda ifodalash mumkinligini nazarda tutadi. Multiplikativ modelning komponentlarini bir nechta bosqichlarda amalga oshiramiz.

Multiplikativ modelda bu barcha choraklar uchun mavsumiy komponent qiymatlari yig‘indisi sikldagi davrlar soniga teng bo‘lishi kerakligi bilan ifodalanadi. Bunday holatda, bir siklning davrlari soni 4 ga teng bo‘lib, S_i – tuzatilgan mavsumiy komponent 1-davrda 0,415 ga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2-davrda 0,849 ga, 3-davrda 1.283 ga va 4-davrda esa 1.452 ga teng ekanligi kuzatildi.

Eng kichik kvadratlar usuli yordamida tenglamaning parametrlarini topish natijasi bo‘yicha aniqlangan trend tenglamaning ko‘rinishi quyidagicha:

$$T = 70456.177 + 9435.356t$$

Yuqoridagi trend tenglamaning ishonchligini aniqlashda determinatsiya koeffitsienti va gipotezalarga tekshirib ko‘ramiz. Determinatsiya koeffitsientini quyidagicha aniqlaymiz:

$$R^2 = 1 - \frac{10076436526.147}{165793151438.35} = 0.94$$

Shunday qilib, multiplikativ model vaqt seriyalari darajasidagi umumiy o‘zgarishlarning 94% ni qamrab oladi deb aytishimiz mumkin.

Modelning kuzatish ma’lumotlariga muvofiqligini tekshirish.

$$F = \frac{R^2}{1 - R^2} \frac{n - m - 1}{m} = \frac{0.94^2}{1 - 0.94^2} \frac{19 - 1 - 1}{1} = 262.71$$

bu yerda, m - trend tenglamasidagi omillar soni (m=1).

$$F_{kp} = 4,4513$$

$F > F_{kp}$, tenglama statistik ahamiyatga ega.

Multiplikativ modeldagi vaqt seriyalari darajasining prognoz qiymati F_t trend va mavsumiy komponentlarning natijasida aniqlanadi. Keyingi besh yillikning choraklik prognoz natijalari 4-jadvalda keltirilgan.


4-jadval

2026-2030-yillardagi O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy hududlarda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining choraklik prognoz parametrlari (mlrd.so‘m)¹³

Davr	Investitsiyalar yillar kesimida, milliard so‘mda			
	31.03.2026y	30.06.2026y	30.09.2026y	31.12.2026y
Prognoz natijalari (mlrd.so‘m)	127131,1	268093,3	417245,4	485906,2
Davr	31.03.2027y	30.06.2027y	30.09.2027y	31.12.2027y
Prognoz natijalari (mlrd.so‘m)	142793,8	300135,8	465667,7	540706,8
Davr	31.03.2028y	30.06.2028y	30.09.2028y	31.12.2028y
Prognoz natijalari (mlrd.so‘m)	158456,5	332178,3	514089,9	595507,3
Davr	31.03.2029y	30.06.2029y	30.09.2029y	31.12.2029y
Prognoz natijalari (mlrd.so‘m)	174119,2	364220,7	562512,2	650307,8
Davr	31.03.2030y	30.06.2030y	30.09.2030y	31.12.2030y
Prognoz natijalari (mlrd.so‘m)	189781,9	396263,2	610934,4	705108,4

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy hududlarda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2030-yilning birinchi choragiga kelib, 2026-yilning birinchi choragiga nisbatan 66,9 foizga o‘sgan. Xuddi shunday 2030-yilning to‘rtinchi choragida Buxoro viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasi 2026-yilning to‘rtinchi choragiga nisbatan 68,9 foizga o‘sgan. Aniqlangan prognoz natijalarning diagramma ko‘rinishi (4-rasmga qarang).

¹³ Muallif ishlanmasi




4-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining prognoz natijasi (miliard so‘m)¹⁴

Mintaqaviy iqtisodiyotda multiplikativ model yordamida prognozlash murakkab iqtisodiy jarayonlardan hisoblanadi. Bunda o‘rganiladigan jarayonlardagi o‘zgarishlarni tahlil qilish shu bilan birga bashorat qilish imkonini beradi. Ushbu o‘rganiladigan jarayonda turli omillar (trend, mavsumiylik, tsiklik tebranishlar va tasodifiy ta’sirlar) bir-biriga qo‘shimcha emas, balki mutanosib ravishda ta’sir qilinishi ko‘riladi. Multiplikativ model yordamida prognozlash O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy hududlarda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining choraklik prognoz natijalarini aniqligini oshiradi. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining choraklik prognozidan xo‘jalik yurituvchi subektlar ya’ni korxonalar, sarmoyadorlar tomonidan qarorlar qabul qilishni optimallashtirish, xaflarni minimallashtirish va resurslarni boshqarish samaradorligini oshishiga yordam beradi. Umumiy xulosa sifatida takidlash joizki, iqtisodiy hududlarda investitsion jarayonlardagi o‘zgarishlarni tahlil qilish va ularni muvofiqlashtirish uchun muhim vosita bo‘lib hisoblanadi.

Mintaqada amalga oshiriladigan investitsiya siyosati o‘z mohiyatiga ko‘ra, hududda mavjud bo‘lgan tabiiy, iqtisodiy, demografik va texnologik resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan bo‘ladi. Har bir mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, uning iqtisodiy rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish salohiyati va ijtimoiy infratuzilmasi mavjudligi sababli investitsiya siyosati ham differensial yondashuv asosida tashkil etilishi zarur hisoblanadi. Bunday yondashuv bir tomondan, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishga xizmat qilsa, boshqa bir tomondan, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishga qaratiladi. Shu bilan birga investitsiya siyosatida mintaqaviy ehtiyojlar, ustuvorliklar va resurslarning oqilona taqsimlanishini ham ta’minlaydi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi ustun hududlarda investitsion salohiyatni oshirishda mahalliy drayverlardan samarali foydalanish uchun xorijiy investitsiyaga asoslanuvchi agrar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “Buxoro agropolis” erkin iqtisodiy hududni tashkil etish maqsadga muvofiq (5-rasmga qarang).

¹⁴ Muallif ishlanmasi



5-rasm. Buxoro agropolis EIH asosida investitsion salohiyatni oshirishning kengaytirilgan konseptual modeli¹⁵

¹⁵ Muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi rasmda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi ustun hududlarda investitsion salohiyatni oshirishning ko'p bosqichli va tizimli konseptual modeli aks ettirilgan bo'lib, unda investitsion jarayonlar tashqi muhit omillaridan boshlab yakuniy hududiy ijtimoiy-iqtisodiy natijalargacha bo'lgan uzluksiz zanjir sifatida talqin etilgan.

Modelning asosiy farqlovchi jihati shundaki, investitsion rivojlanish jarayonining markazida "Buxoro agropolis" erkin iqtisodiy hududi joylashtirilgan.

Darhaqiqat, Ushbu erkin iqtisodiy hudud mahalliy drayverlarni xorijiy investitsiyalar bilan bog'lovchi transformatsion mexanizm vazifasini bajaradi. Modelda xorijiy investitsiyalar tarmoq yo'naltirilgan holda agrar ishlab chiqarish, chuqur qayta ishlash, agrotexnologiyalar va ekologik barqaror texnologiyalarga yo'naltirilishi nazarda tutilgan bo'lib, bu investitsion samaradorlikni oshirish bilan birga hududiy rivojlanishning ekologik muvozanatini ta'minlashga xizmat qiladi. Yakuniy bosqichda shakllanadigan hududiy ijtimoiy-iqtisodiy natijalar asosida samarali boshqaruv usullarini qo'llash, investitsiya loyihalarni qayta moliylashtirish orqali erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirish imkonini beradi. Bu esa modelni statik emas, balki dinamik va moslashuvchan tizim sifatida tavsiflaydi.

XULOSA

Dissertatsiya ishini bajarish davomida ilmiy-tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Xorijiy tashkilotlar va tadqiqotchilarning ishlanmalarini o'rganish asosida investitsiya, investitsiyaning o'ziga xos xususiyatlari, keltirilgan yondashuvlarni kengroq ko'lamda qamrab hamda zamonaviy tendensiyalardan kelib chiqqan holda investitsiya mazmun-mohiyati tadqiq qilinib, investitsiya tushunchasining ta'rifi ishlab chiqildi.

2. Iqtisodiy hududlarda investitsiya jarayoni tushunchasini ikki yo'nalishda qo'llanilishiga ko'ra, 1) mikro darajada (jarayon sifatida) investitsiya faoliyati subektlarining natija (daromad) olish uchun investitsiya obyektini o'zgartirish yoki uni rivojlantirishga qaratilgan ketma-ket harakatlarining tabiiy majmui sifatida hamda 2) makro darajada (tizim sifatida) doimiy o'zgarish holatida bo'lgan investitsiya sohasining bitta murakkab dinamik tizimining o'zaro bog'langan elementlari to'plamini o'z ichiga olgan iqtisodiy munosabatlarni doimiy takrorlanadigan tizimi sifatida baholash imkonini beradi.

3. O'zbekiston respublikasi hududlarida investitsiyalarni faollashtirish uchun uni iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmi takomillashtirish chora-tadbirlardan biri sifatida sarmoyadorlarga soliq imtiyozlarini berish asosida yangi texnologiyalarga investitsiya yo'naltirishning moliyaviy, logistika va boshqa resurslar uchun imtiyozlariga ega bo'lishlari asoslandi.

4. Investitsiya jarayonida lizing mexanizmidan faol foydalanish turli shakldagi korxonalarining innovatsion va investitsiya faoliyatini faollashtirish, ularning moddiy-texnik bazasini yangilash, mahsulot raqobatbardoshligini oshirishi aniqlandi.

5. Respublikaning viloyat tarkibiy hududlarida xorijiy investitsiyalar oqimini oshirish eksport va valyuta ayirboshlashni ta'minlashi, iqtisodiyotga yangi texnologiyalar va boshqaruvning yangi usullarini joriy etilishini inobatga olgan holda mahalliy ishlab chiqarishning yangi bozorlarni eganlashi va rag'batlantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

6. O'zbekiston Respublikasining hududlari kesimida 2024 yil uchun qabul qilingan investitsiyaning eng ko'p ulushi yani 18 foizi Toshkent shahriga to'g'ri kelgan bo'lsa, ikkinchi va uchinchi o'rinlar Toshkent viloyati va Namangan viloyatlariga to'g'ri kelgan. Respublikada jalb qilingan jami investitsiyaning 14 va 11 foizi mos ravishda bu viloyatlar hissasiga to'g'ri keladi.

7. O'zbekiston Respublikasining hududlari kesimida kiritiladigan investitsiyalarning har yili o'rtacha o'sib borish dinamikasi tahlil qilingana Toshkent shahriga 7,6 foiz, Toshkent viloyatiga 11,9 foiz, Buxoro viloyatiga 11,8 foiz, Xorazm viloyatiga 11,3 foiz, Qoraqalpog'iston Respublikasiga 30,4 foiz, Samarqand viloyatiga 19,3 foizni ko'rsatdi.

8. Hududning investitsiyalarga qiziqishini va iqtisodiy faolligini o'lchaydiganda Qoraqalpog'iston Respublikasi 0,450, Andijon viloyati 0,311, Buxoro viloyati 0,684, Jizzax viloyati 0,536, Qashqadaryo viloyati 0,409, Navoiy viloyati 0,290, Namangan viloyati 0,774, Samarqand viloyati 0,297, Surxondaryo viloyati 0,281, Sirdaryo viloyati 0,391, Toshkent viloyati 0,482, Farg'ona viloyati 0,245, Xorazm viloyati 0,289, Toshkent shahri 0,314 koeffitsientga teng ekanligi aniqlandi.

9. Aylanma fondan foydalanishning asosiy vazifasi investitsiya loyihasidan maksimal foyda olish emas, balki investitsiya loyihasi doirasida pul oqimlari jarayonlarini qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy resurslarni to'plashdir. Aylanma fondlar mintaqalarda ijtimoiy va ishlab chiqarishga yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirishning samarali vositasi sifatida amal qilishida investitsiyalarni moliyalashtirishning "revolver" mexanizmi taklif qilindi.

10. Mintaqaviy investitsiya jarayonining rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan iqtisodiyotning real sektori korxonalarining zaif moliyaviy ahvoli, daromadlilikning pastligi, investitsiya xatarlarining yuqori darajasi, ko'p hollarda aylanma mablag'larni to'ldirish uchun foydalaniladigan amortizatsiya ajratmalaridan noto'g'ri foydalanishlari kabi salbiy ta'sir belgilovchi omillar baholandi.

11. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy hududlarda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2030-yilning birinchi choragiga kelib, 2026-yilning birinchi choragiga nisbatan 66,9 foizga o'sgan. Xuddi shunday 2030-yilning to'rtinchi choragida Buxoro viloyatida xizmat ko'rsatish sohasi 2026-yilning to'rtinchi choragiga nisbatan 68,9 foizga o'sgan.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.I.08.03 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЖИЯНОВ ЛАЗИЗ НАЖИМОВИЧ

**УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ АНАЛИЗА И ОЦЕНКИ
ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В ЭКОНОМИЧЕСКИХ
РЕГИОНАХ**

08.00.12 – Региональная экономика

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Бухара – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована за номером B2024.1.PhD/Iqt3871 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан

Диссертационная работа выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.buxdu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Исомов Бекмурод Сайфиidinovich доктор философии (PhD) по экономическим наукам, доцент.
Официальные оппоненты:	Низомов Аслиддин Бадриддинovich доктор экономических наук, профессор Арабов Нурали Уралович доктор экономических наук, профессор
Ведущая организация:	Ургенчский государственный университет

Защита диссертации состоится в _____ часов «__» _____ 2026 года на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.1.08.03 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном университете (220114, г.Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел: (99 865) 221-26-46, факс: (99 862) 224-57-00, электронная почта: info@buxdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за № _____). (Адрес: г.Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел.: (998 65) 221-25-87, электронная почта: info@buxdu.uz).

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2026 года
(реестр протокола рассылки № _____ от «__» _____ 2026 года)



О.Х. Хамидов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.э.н.,
профессор

Ш.П. Явмутов
Секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.э.н.,
профессор

Б.Н. Нарзулло
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире достижение целей устойчивого экономического развития регионов остаётся во многом обусловленным оптимизацией инвестиционных процессов, направленных на сокращение глобальных диспропорций и организацию производства конкурентоспособной продукции и оказания услуг на международных рынках. Стимулирование и усовершенствование инвестиционных процессов в регионах позволяет обеспечить их социально-экономическое развитие. Согласно аналитическим данным, «в 2024 году объём прямых иностранных инвестиций в мире составил 1,3 трлн долларов США, при этом в развивающихся странах уровень освоения инфраструктурных проектов, а также объём инвестиций, направленных в отрасли, связанные с развитием экономических регионов, сократился на 10 процентов»¹. В данном контексте особую актуальность приобретает увеличение объёма прямых иностранных инвестиций посредством оптимизации условий финансирования инвестиционных проектов в процессе экономического развития регионов.

В экономически развитых странах мира проводятся научно-исследовательские работы, направленные на широкое привлечение инвестиций в развитие экономических регионов и достижение высокой экономической эффективности. К числу приоритетных направлений исследований в сфере развития региональной экономики относятся: улучшение инвестиционного климата, развитие инвестиционного потенциала структурных территориальных единиц, направление инвестиций в отрасли и сферы экономики региона, активизация привлечения прямых иностранных инвестиций, обеспечение эффективности инвестиционных проектов, поддержка местных и иностранных инвесторов, а также усовершенствование механизмов управления процессами привлечения инвестиций.

В условиях строительства Нового Узбекистана в регионах реализуются реформы, направленные на проведение активной инвестиционной политики, привлечение иностранных инвестиций, играющих важную роль в социально-экономическом развитии, а также усовершенствование механизмов их государственной поддержки. В целях удвоения объёма экономики страны к 2030 году и вхождения в группу государств с уровнем дохода выше среднего определены такие задачи, как обеспечение среднегодового роста объёма инвестиций в основной капитал примерно на 7 процентов². Решение данных приоритетных задач требует усовершенствования методики анализа и оценки инвестиционного процесса в регионе как решающего фактора национального экономического развития, обеспечения благоприятного инвестиционного и делового климата, отбора региональных инвестиционных проектов и оценки их экономической эффективности, а также разработки прогнозных показателей развития инвестиционного процесса в регионе на перспективу,

¹ UN Trade and Development (UNCTAD), World Investment Report 2024. Geneva – September 2024

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi “«O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

что обуславливает необходимость проведения соответствующих научных исследований.

Настоящее научное исследование в определённой степени способствует реализации задач, установленных Законом Республики Узбекистан «Об инвестициях и инвестиционной деятельности», а также нормативно-правовыми актами Президента Республики Узбекистан и Кабинета Министров Республики Узбекистан. В их числе: Указы Президента Республики Узбекистан от 10 января 2019 года № ПФ-5621 «О мерах по коренному усовершенствованию системы реализации государственной политики в сфере экономического развития», от 5 октября 2020 года № ПФ-6079 «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» и мерах по её эффективной реализации», от 26 июля 2023 года № ПФ-111 «О мерах по эффективной организации государственного управления в сфере инвестиций, промышленности и торговли в рамках административных реформ», от 11 сентября 2023 года № ПФ-158 «О Стратегии «Узбекистан – 2030»; постановления Президента Республики Узбекистан от 20 декабря 2017 года № ПҚ-3439 «О мерах по дальнейшему повышению эффективности сотрудничества с международными и зарубежными финансовыми институтами», от 8 января 2019 года № ПҚ-4102 «О дополнительных мерах по дальнейшему усовершенствованию деятельности секторов по комплексному социально-экономическому развитию регионов», от 28 декабря 2022 года № ПҚ-459 «О мерах по реализации Инвестиционной программы Республики Узбекистан на 2023–2025 годы», от 5 апреля 2023 года № ПҚ-113 «О дополнительных мерах по расширению производства и переработки сельскохозяйственной продукции и их поддержке в 2023 году», от 27 июля 2023 года № ПҚ-238 «О мерах по дальнейшему ускорению реформ в сфере туризма и эффективной организации системы государственного управления в отрасли»; а также постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 15 октября 2022 года № 606 «О дополнительных мерах по ускорению инновационной и инвестиционной деятельности в регионах республики», от 14 января 2023 года № 16 «О мерах по дальнейшему усовершенствованию системы формирования Инвестиционной программы Республики Узбекистан и повышению её эффективности» и другие нормативно-правовые документы в данной сфере.

Соответствие темы исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационная работа выполнена в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики — «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. В зарубежных странах проведён ряд научных исследований, посвящённых вопросам комплексного развития и финансирования экономических регионов, особенно в части их инвестиционного обеспечения и экономической значимости инвестиций. В частности, данные вопросы всесторонне освещены в научных трудах зарубежных учёных — Дж. М. Кейнса, П. Массе, Э. Рида, Ф. Котлера, З. Гиала,

Р. Смита, Ф. Уильяма, Дж. Гордона, А. Эффе, К. Эклуда, К. Макконнелла, С. Брюса, А. Ричарда, Р. Фрэнка, Р. Пайка, Б. Нила, Ф. Уильяма, П. Самуэльсона, Д. Нордхауза, Й. Стиглица, Р. Гибсона, К. Маркса, З. Боде, А. Кейна, М. Алана, Б. Томова, Р. Альварато, М. Иньигеса, Н. Роналда, Т. Никифороса³.

